HARBIY TERMINLARNI NEMIS TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

Choriyeva Iroda Bekmurod qizi
O'ZDJTU, Tarjimonlik fakulteti, 2-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nemis tilidagi harbiy terminlarning o'zbek tiliga tarjima qilinishidagi lingvistik, madaniy hamda semantik muammolari tahlil qilinadi. Terminlarning to'g'ri talqin etilishi, kontekstga mos ekvivalent topish va harbiy atamalarni standartlashtirish masalalari ilmiy yondashuv asosida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida tarjima usullaridan biri bo'lgan kontekstual tahlil, izohli tarjima va transkripsiya usullarining qo'llanishi muhokama qilinadi.*
Kalit so'zlar: *harbiy termin, tarjima, ekvivalent, semantika, nemis tili, o'zbek tili, qisqartmalar.*
Abstract. *This article analyzes the linguistic, cultural and semantic problems of translating German military terms into Uzbek. The issues of correct interpretation of terms, finding contextual equivalents and standardization of military terms are considered on the basis of a scientific approach. The study discusses the use of contextual analysis, explanatory translation and transcription methods, which are among the translation methods.*
Keywords: *Military term, translation, equivalent, semantics, German language, Uzbek language, abbreviations.*
Аннотация. *В статье анализируются лингвистические, культурные и семантические проблемы перевода немецких военных терминов на узбекский язык. Проблемы правильной интерпретации терминов, поиска контекстуальных эквивалентов и стандартизации военных терминов рассматриваются на основе научного подхода. В исследовании рассматривается использование контекстуального анализа, объяснительного перевода и методов транскрипции, которые являются одними из методов перевода.*
Ключевые слова: *Военный термин, перевод, эквивалент, семантика, немецкий язык, узбекский язык, аббревиатуры.*

Jahon mamlakatlari o'rtasidagi harbiy-siyosiy hamkorliklarning kuchayishi va o'rtada o'rnatilyotgan do'stona aloqalar tarjima faoliyatida nafaqat harbiy terminologiyaning ahamiyatini yuqoriga ko'taradi, balki uni o'rganishga bo'lgan talab yanada oshadi. Xususan, Germaniya bilan harbiy sohada olib borilayotgan diplomatik hamkorlik materiallarini to'g'ri tarjima qilish xavfsizlik va rasmiylik talablariga javob berishi kerak.

Nemis harbiy terminologiyasi o'ziga xos murakkab tuzilishga ega bo'lib, unda qisqartmalar, ko'p ma'nolilik, tarixiy terminlar va zamonaviy harbiy texnologiyalarga oid yangi terminlar keng qo'llanadi. Shu sababli tarjimonning qanchalik harbiy sohaga oid bilimga egaligi muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari tarjima jarayonida harbiy atamalarga to'g'ridan to'g'ri ekvivalent topilishi mushkulligi, uning kontekstga bog'liq bo'lishi, o'zaro madaniy va tizimli farqlar, qisqartmalar va maxfiy terminlarning bo'lishi tabiiy.

Harbiy terminlarning lingvistik xususiyatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular boshqa terminlardan aniqlik va ixchamligi (terminlarning ortiqcha ma'nolardan holi bo'lishi), milliy va tarixiy belgilarning aks etishi, ko'p holatlarda qisqartmalar shaklida qo'llanishi, xalqaro standartlikka yaqinligi, maxfiylik va rasmiylik darajalari bilan ajralib turadi. Tarjima jarayonida bitta harf yoki bo'g'inning noto'g'ri talqin qilinishi mazmunga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Shuningdek, davlat havfsizlik tizimi va yo'nalishlarining farqi bo'lganidek harbiy terminlar ham shularga ko'ra turlarga bo'linadi. Masalan:

1. Harbiy unvonlar: Generelleutnant – General leytenant, Oberst – Polkovnik, Feldwebel - Serjant deb ataladi.
2. Qurol-aslahalarda: Panzer – Tank, Kampfflugzeug – jangavor samolyot, Maschinengewehr - pulemyot kabi.
3. Taktik birliklari: Bataillon – Batalyon, Division - diviziya, Regiment – polk.
4. Harbiy texnologiyalari: Drohne - Dron, Rakete - raketa, Radar – radar deya xalqaro nomlarni qabul qilgan.
5. Harbiy huquqqa oid: Kriegsrecht – Harbiy qonunchilik, Militargesetz – harbiy holat huquqidir.
6. Harbiy dengiz tizimlari: Marine – Harbiy dengiz kuchlari, Flotte - flot, U-Boot – suv osti kemasi kabi muqobil ekvivalentlari mavjud.

Ammo bu hamma vaqt ham to'laligicha mos kelavermaydi. Masalan ''Bundeswehr''- bu shunchaki Germaniya armiyasi emas, balki ularning rasmiy harbiy tizimi (qurolli kuchlaridir). Bu terminni so'zma so'z tarjimada keltirilganidek ''Bundesver'' tarzida ishlatish xato, chunki standart nom qo'llanilishi shart. Bular to'g'ridan to'g'ri madaniy farqlarni ochib beradi. Shundan ko'rinib turibdiki, ba'zi nemis harbiy terminlarining o'zbek tilida tayyor, aniq muqobili yo'q. Yoki bo'lmasa ''Gefechtsbereitschaft'' so'zini oladigan bo'lsak, so'zma so'z tarjimada ''Jangga tayyorgarlik holati'', ammo bu so'z ichida taktika, ruhiy holat, texnik tayyorgarlik jarayonlarini ham o'zida aks etishi kerak. O'zbekchada bularni bir so'z bilan yetkazib berishimiz qiyin. Shunday ekan ma'no qisqarib yoki soddalashib, kutilgandek natija bo'lmasligi mumkin. Yoki bir terminning turli vaziyatlarda boshqa-boshqa ma'noda ishlatilishi; masalan ''Einheit'' so'zi kontekstdagi matn ma'nosiga qarab turlicha '' Harbiy birlik, bo'linma, jamoa'' kabi tarjimalarda qo'llanilib keladi.

Boshida aytib o'tilganidek harbiy terminlarni qisqartmalar va maxfiy so'zlarsiz tasavvur etish qiyin. Ular matnni ixcham va rasmiy qilish uchun ishlatiladi, biroq ular tarjima jarayonida izohsiz qo'llanganda mazmun noto'g'ri tushinilishi yoki umuman tushinilmasligi mumkin. Ko'pincha nafaqat nemis tilidagi, balki boshqa tillardagi harbiy qisqartmalar faqat mutaxassislar uchungina tushinarli bo'lib kelgan. Masalan - ''ABC-Waffen'' to'liq shakli ''Atomare, Biologische und Chemische Waffen – Yadro, biologik va kimyoviy qurollar'' deya keltirishimiz mumkin. Ammo ''ABC qurollari'' kabi tarjimaga berilsa, tushinilmaslik mumkin. Bundan tashqari harbiy tashkilot va bo'linma qisqartmalarini oladigan bo'lsak, ''KSK –Kommando Spezialkrafte'' o'zbek tiliga ''Maxsus kuchlar qo'mondonligi'' yoki ''BW - Bundeswehr'' Germaniya qurolli kuchlari kabi. Har bir davlat harbiy tizimi o'ziga xos tarix va madaniyatga egaligi sababli Germaniya tarixiy-harbiy armiyasi qadimda ''Wehrmacht'' deya atalgan. Mudofaa vazirligi esa ''Verteidigungsministerium'', ''Sondereinsatzkomman'' – maxsus operatsiya otryadi kabi. Yoki texnik va taktik qisqartmalari ''LZ (Landezone) - qo'nish hududi (Desant tushish joyi), AoO(Area of Operations) – harbiy harakatlar olib boriluvchi amaliyot hududi'' degan ma'nolarini anglatadi. Ko'p hollarda qisqartmalarni faqat tarjima qilish yetarli emas, balki qisqacha izoh ham berish kerak. Masalan: ROE (Rules of Engagement) – harbiy kuch ishlatish qoidalari, ya'ni harbiy harakat olib borish, jangda qurol ishlatish tartibini ko'rsatadi. Misollardan ham ko'rinib turibdiki, tarjima samaradorligini oshirish va noto'g'ri fikrlarni bartaraf qilish uchun harbiy terminlarni izohi bilan ishlatish, harbiy mutaxassislar va tarjimonlarning hamkorligi, terminlarni normativlashtirish va standartga solish, maxsus harbiy tarjima kurslari tashkil etish yoki harbiy terminlar rasmiy lug'atlarini yaratish muhim.

Xulosa qilib aytganda nemis tilidagi harbiy terminlarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayoni yuqori darajada bilim va ma'suliyat talab etadi; bu nafaqat harbiy soha, balki boshqa sohalarda ham. To'g'ri tarjima qilinmagan harbiy terminlar xalqaro munosabatlarda jiddiy xatolarga sabab bo'lishi mumkin. Bunda tarjimondan harbiy tizim haqida chuqur bilim, kontekstni to'g'ri tushinish, ekvivalent tanlashdagi ehtiyotkorlik, xalqaro standartlarga mos holda tarjima qilish talab qilinadi. Shu bois harbiy tarjima – faqat til (ya'ni boshqa tildagi yangi so'zni o'rganish) emas, balki xavfsizlik masalasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bundesministerium der Verteidigung (rasmiy manbalar)
2. Bundeswehr rasmiy hujjatlari va veb-portallari.
3. Duden Militarlexikon. – Berlin, 2023.
4. Saidov M. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2019.
5. Yo'ldoshev A. Harbiy terminologiya asoslari. – Toshkent, 2022.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent, 2020.